

## INSONNING YASHASH HUQUQI VA UNING KAFOLATLANISHI

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
kafedra professori Xamdamov Isakjan Mamasaliyevich*

### **Annotatsiya**

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining "Shaxsiy huquq va erkinliklar" nomli bo'limida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy asosi o'z aksini topgan. Jumladan, 25-moddada belgilanganidek "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir va u qonun bilan muxofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Inson huquqlari, erkinlik, shaxsiy daxlsizlik.

Yashash huquqi insonning ajralmas Huquqi sifatida deyarli barcha inson huquqlariga oid xalqaro xujjatlarda mustahkamlangan. Xususan, 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasining 3-moddasida har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ega ekani mustahkamlangan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar tugrisidagi xalqaro Paktning 6-moddasida esa "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Bu huquq qonun bilan himoyalanaadi. Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashashdan mahrum qila olmaydi" deyelgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida ham inson va fuqarolarning yashash huquqlariga oid ushbu xalqaro andozalar o'zining to'la aksini topgan.

Mazkur normaning mazmun- mohiyatini ko'rib chiqamiz. O'zbekiston inson huquq va erkinliklarini o'zida mustahkamlagan yetmishdan ortiq xalqaro xujjatlarga qo'shilgan. Bu xujjatlar O'zbekiston qonunchiligining shakllanishi, jumladan, inson huquq va erkinliklari borasidagi qonunlarning yaratilishi uchun ham asos bo'lib xizmat qilgan.

"Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi" ning 3, 4, 5-moddasida, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6, 7, 9, 10, 11-moddalarida insonning yashash huquqi, qadr-qimmati, ozodligi va xavfsizligi, sha'ni va obro'sini himoya qilish kabi huquqlari mustahkamlangan.

Shaxsning yashash huquqi - bu insonning tuzilishi bilan vujudga keladigan, faqat o'zining biologik mavjudligini taminlovchi hamda davlat tomonidan muhofaza etiladigan huquqdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 25-moddasida yashash huquqining mustahkamlanishi davlat tomonidan uni qo'riqlash va himoya qilishning kuchli mexanizmini yaratishni talab qiladi. Bu boradagi tadbirlar nafaqat jinoyatchilikning

oldini olish yoki jinoyatga qarshi kurashish natijasidagi huquqni himoya qilish faoliyatini, balki ijtimoiy sohada ham inson hayotining ta'minlanishini o'z ichiga oladi.

Insonning tabiiy huquqi, ya shash huquqini himoya qilish davlat hamda barcha jamoat tuzilmalari faol harakatlarining keng doirasini, har bir inson turmushining xavfsiz ijtimoiy va tabiiy muhitini, turmush sharoitini o'z ichiga oladi. Mazkur norma Konstitutsiyada mustahkamlanib, kafolatlangan inson va fuqarolarning yashash huquqi joriy qonunlarda rivojlantiriladi va amaliyotda davlat organlarining tashkiliy faoliyati orqali ta'minlanadi.

Har bir inson va uning hayoti jamiyatning ajralmas elementi sifatida ijtimoiy qadriyatdir. Shuning uchun, inson o'limiga sabab bo'ladigan har qanday qilmish qonunda ijtimoiy xavfli jinoyatlar qatoriga kiritilgan. Jinoyatlar ichida eng xavflisi insonni yashash huquqidan mahrum etadigan odam o'ldirish jinoyati hisoblanib, bu qilmish g'ayriqonuniy tarzda bir kishini ikkinchi kishi tomonidan qasddan hayotdan mahrum qilish deb tushuniladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi.

Konstitutsiya asosida yaratilgan O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi insonlarning ijtimoiy sifatleri yoki har qanday biologik xususiyatlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar, ular sog'ligini saqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Har bir inson u yosh go'dakmi yoki qariyasi, jismonan sog'lom yoki nogironmi, aqli raso yoki noraso bo'lishidan qat'i nazar, uning hayoti va soglig'i eng oliy qadriyat ekanligi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "8 dekabr O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi kuni"ga bag'ishlangan bayram tabrigida "Konstitutsiyamizda qat'i belgilab qo'yilganidek, insonning sha'ni va qadr-qimati dahlsiz bo'lib, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifalarimizdan biridir" – deb ta'kidlab o'tdilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi xalqiga bayram tabrigi. 07.12.2023.
2. LEX.UZ <https://lex.uz> docs. 30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi